



**MUHAMMAD TARAG‘AY ULUG‘BEK DAVRIDA
MOVAROUNNAHRNING SIYOSIY, IJTIMOIY, IQTISODIY VA
MADANIY YUKSALISHI**

Ataxanov Samandar Salimjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo ‘nalishi

1-bosqich talabasi

E-mail: samandarataxanov151@gmail.com

Tel: +99895-571-41-06

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekni Movarounnahrda hukmronlik qilganligi, uni siyosiy faoliyati. Mamlakatda olib borgan islohati, davlat boshqaruvida tutgan o‘rni. Olib borgan qurilish ishlari va ilm fanga qo ‘shgan hissasi va bugungi kunda Mirzo Ulug‘bek xotirasi uchun qilinayotgan ishlar haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘z: Mirzo Ulug‘bek, Sohibqiron, Shohruux, Gavharshodbegim, Ziji jadid Ko‘rgon, Samarqand.

Annotation: In this article, the ruling of Mirza Ulugbekni in Movarounnahr, his political activities. His reforms in the country, his role in state administration. A brief description of the construction works and his contribution to science, as well as the work being done in memory of Mirzo Ulugbek today.

Key words: Mirzo Ulugbek, Sahibqiron, Shahrukh, Gavharshadbegim, Ziji Jadid Korgon, Samarkand.

Аннотация: В данной статье рассматривается правление Мирзы Улугбекни в Моваруннахре, его политическая деятельность. Его реформы в стране, его роль в государственном управлении. Краткое описание строительных работ и его вклада в науку, а также работ, проводимых в память о Мирзо Улугбеке сегодня.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Сахибқирон, Шахруҳ, Гавҳаршадбегим, Зиджи Джадид Корғон, Самарқанд.



Kirish. Sohibqiron avlodlari ichida ko‘plab, Temuriylar Amir Temurga munosib davomchi bo‘la olishdi. Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Abu Said Mirzo, Sulton Husayn Bayqaro, Zahiriddin Muhammad Boburlar munosib voris sanalishadi. Bular ichida Amir Temurning suyukli nabirasi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek alohida ajralib turadi. Ulug‘bek o‘zining ilm-fanga mehri bilan Temurbekning qolgan nabiralaridan ajralib turar edi. Bundan tashqari Sohibqiron Mirzo Ulug‘bekni ardoqlar edi.

Mirzo Ulug‘bek shaxsiyatiga to‘xtalishdan avval uni ota-onasiga to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Otasi Shoxruh Mirzo bo‘lib, u 1377-yil 20-avgust kunni tavvallud topgan. Onasi Tag‘oyi Turkon Og‘o bo‘lib, Amir Temurni xos kanizlaridan biri bo‘lgan. Shoxruh Mirzo tarbiyasi bilan, Saroymulkixonim shug‘ullanadi. Mirzo yoshligidan diniy kitoblar ko‘p o‘qib, dindor bo‘lganligi uchun Sohibqiron bu o‘g‘liga nisbatan e’tiborli emas edi, shu boisdan ham vafoti chog‘ida valiahd tayyorlamganligi bejiz emas. 20 yoshida Mirzo Shoxruh otasini harbiy yurishlarida ishtrok eta boshlaydi. 1397-yilda Temurbek o‘g‘ilini Xuroson, Seiston, Jurjon, Mozandaron hududlariga hokim etib tayinlanadi. Shoxruh bu hududlarni 1405-yilgacha hokim sifatida boshqardi. 1407-yildan o‘zini hukmdor sifatida e’lon qilib, Amir Temurdan so‘ng boshlangan o‘zaro urushlarga barham berolgan. U hukmdorligi davrida qoraqo‘yunli turkmanlardan Eronni qaytarib olib, markzaiy hokimiyatga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ladi. 1447-yil nabirasi Sulton Muhammad isyonini bostirish payitida vafot etadi.

1488-yilda Sohibqiron Amir Temur Shoxruh Mirzoga (kelib chiqishi Chingizxonning Kushlik ismli sarkardasini avlodi) G‘iyosiddin tarxonning qizi Gavharshodbegimni olib beradi. Begim oqila va tadbirli ayol edi.[1] Gavharshod begim davlat ishlarida faol bo‘lib, mamlkatda katta nufuzga ega edi. Shohrux Mirzo, Abulqosim Boburlarga o‘zini ta’sirini, bevosita balki, bilvosita o‘tkaza olgan. 1457-yil Abu Said Mirzo Hirot taxtini egallagach, begimni ayovsizlarcha qatl ettiradi.[2]

1394-yil 22-marta Eronning Sultoniyah shahrida ularning ilk farzandi Mirzo Ulugbek dunyoga keladi. Aynan Mirzo Ulug‘bek tug‘ilgan kezda Mardin qal’asini olish chog‘ida Umarsayx Mirzo halok bo‘ladi. Aynan, Ulug‘bekni tug‘ilishi Mardin



aholisini qatlomdan saqlab qoladi. Unga Sohibqiron tomonidan otasining ismi Muhammad Tarag‘ay nomi beriladi. Ulug‘bekni tarbiyasi esa Saroymulkixonim zimmasiga yuklatiladi. Ko‘pchilik, olimlar tomonidan Ulug‘bek va onasi Gavharshodbegim o‘rtasidagi munosabatlar iliq bo‘lman. Poyon Ravshanov tomonidan bunga sabab sifatida, Ulug‘bek doim Samarqandda bo‘lganligi va Hirotg‘a kam kelganligini izohlaydi. 1398-yilda olim Shayx Olim Ozariy ustoz etib tayinlanadi va unga ustozni ilm javohirlaridan saboq bera boshlaydi. Ulug‘bekni ilmga mehri o‘zgacha edi. U Samarqanddagi, otasining Hirotdagi kutubxonalaridan foydalana olardi. 1404-yilda Sohibqiron Sulton Muhammad Mirzoni qizi Og‘obegimni Ulug‘bekga unashtirib qo‘yadi.

1404-yil Amir Temur Toshkent, Sayram, Avliyota, Ashpardan toXitoy chegarasigacha bo‘lgan hududlarini 10 yoshli Ulug‘bekga suyurg‘ol etib beradi. Amir Temur o‘zi bilan Mirzo Ulug‘bekni Xitoy yurishiga ukasi Ibrohim Mirzo bilan birga olib ketadi. Biroq, Sohibqiron 1405-yil vafot etganidan so‘ng, Movarounnahrda hokimiyat Xalil Sultonga o‘tgach Ulug‘bek otalig‘i Shohmalik bilan Xurasonga otasi oldiga ketishga majbur bo‘ladi. Bu yillarda Ulug‘bek Xurason viloyatlarida hokim vazifasini bajaradi. 1409-yil Shoxruh Mirzo Movarounnahrda hokimiyatni Xalil Sultondan tortib olgach, Ulug‘bekni Samamarqand hukmdori etib tayinlaydi. Biroq, Xorazm, Farg‘ona, Xisor, Turkiston hududlari Mirzo Ulug‘bekga itoat qilmas edi. 15 yoshli Ulug‘bek faqat Samarcand, Buxoro, Nasaf bilan chegaralanib, Turkiston hokimi Shayx Nuriddin, Farg‘ona hokim amir Xudaydodlar Ulug‘bek hokimiyatini tan olmas edi. 1410-1414-yillarda Shayx Nuriddin isyonni bostirilib, Xorazm Oltin O‘rda tarkibidan qaytarib olindi, Farg‘ona hududlari Mirzo Ulug‘bekka otasi ko‘magida bo‘ysundirildi. Bundan tashqari Ulug‘bek Qo‘sgh‘argacha bo‘lgan hududlargacha boradi. Ulug‘bek 1425-yilda ukasi Jog‘iy Mirzo bilan Mog‘ulistonaga yurish qildi va g‘alaba qozondi. 1427-yilda esa Dashti Qipchoq xonni Baroqi o‘g‘londan mag‘lubiyatga uchrab, otasi ko‘magida bir o‘limdan qoladi. Shundan, so‘ng Ulug‘bek otasi Shoxruh Mirzo vafotiga qadar harbiy yurishlarda ishtirok etmaydi.



Ulug‘bek qolgan umrini ilm-fanga bag‘ishlaydi, ammo 1447 – 1448-yillarda Xurosondagi jiyanlaridan ota meros tatxtini qaytarib olish mqasadida, Shohruk Mirzoni o‘gli ukasi Boysung‘ur Mirzoni o‘g‘illari Alouddavla va Abulqosim Boburlarga qarshi urush olib bordi. 1448-yil o‘g‘li va o‘zining birlashgan 50 ming qo‘smini bilan Tarnob jangida jiyani Aloddavlani qo‘sminini mag‘lub qildi. Ulug‘bek Movarounnahrdagi ichki kurashlar tufayli ortga qaytishga majbur bo‘ldi va Abdulatifni Hirotgaga noib etib qoldiridi. Abdulatif Hirotni 15 kun boshqarib, Blaxga qaytdi va otasiga qarshi isyon ko‘tardi. 1449-yilda esa isyonkor o‘g‘li Abdulatifga qarshi kurash olib boradi. Biroq, o‘g‘lidan mag‘lubiyatga uchragach, fitnachilar qutqusiga uchgan o‘g‘il buyrug‘i bilan 1449-yilning kuzida Said Abbas tomonidan qatl etiladi. Ulug‘bek o‘ldirilganidan olti oy o‘tar-o‘tmas Abdulatif ham Ulug‘bekni sarkardasi Bobo Husayn Bahodir tomonidan qatl etiladi va padarkushning boshi uzoq muddat Mirzo Ulug‘bek madrasasi peshtoqiga osib qo‘yiladi.

Ulug‘bek Mirzoning besh o‘g‘li va yettita qizi bo‘lgan, ammo qizlarini ayrimlarini ismi bizgacha yetib kelmagan. Asosan, beshta xotini va oltita joriyasi bo‘lgan. Ulardan faqat uch xotinini ismi ko‘rsatilgan xalos. Birinchi xotini Sulton Muhammad Mirzoni qizi O‘g‘i begin, ikkinchi qizi Sohibqiron davrida qo‘g‘irchoq xon bo‘lgan, Mahmudxonni qizi Xon o‘go edi. Uchinchi xotini Xusn Nigor xon bo‘lib, u Xalil Sultonni qizi hisoblanadi. Ulug‘bek ikkinchi xotinni olganidan so‘ng, Ko‘rag‘on ya’ni xonning kuyovi unvonini olgan. Ulug‘bekni yettita qizi bo‘lib, ularni ayrimlarini ismi bizgacha ma’lum bular Habiba Sulton, Sulton Baxt, Robiya Sulton begin, Og‘a Tug‘on Shoh kabilalarini ismlari yetib kelgan xalos. Bundan tashqari Ulug‘beknni beshta o‘g‘li bo‘lib, Ibodulla Mirzo(1412-1417), Abdulla Mirzo (1420-1433), Abdurahmon Mirzo (1421-1432), Abdulatif Mirzo(1428-1450), Abdulaziz Mirzo(1430-1450) bo‘lgan. 3 ta farzandlari erta vafot etganligi bois, Abdulatif Mirzo taxt vorisi etib tayinlanadi.

Mirzo Ulug‘bek avlodlari:

- Ibodulla Mirzo 1412-1417.
- Abdulla Mirzo 1420-1433.
- Abdurahmon 1421-1432.



– Abdulatif 1428-1450: Abdurazzoq Mirzo, Ahmad Mirzo, Mahmud Mirzo,
Jo‘giy Mirzo, Muhammad Boqiy Mirzo

– Adulaziz Mirzo

Ulug‘bek taxtga o‘tirgan kezlaridanoq ilm-fanga va olimlarga homiylik qilishga harakat qiladi. Uning hukmdorligi davrida, Samarqand sharqning ilm markzalaridan biriga aylandi. Mirzo Ulug‘bek umri davomida astronomiya, musiqa, tarix, gometriya, matematika fanlari bilan shug‘ullandi. Astaronomiyaga oid “Ziji jadidi Ko‘ragon”, tarixga oid “ Tarixi arba ulus” ya’ni “ To‘rt ulus tarixi” asarini yozdi. Musiqaga oid esa beshta risola yozdi. Ulug‘bek Samarqandda Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi zamonasining yirik olimlarini to‘play oldi. Ulug‘bek bundan tashqari o‘z davrida astronomik kuzatishlar maqasadida Samarqandda rasadxona qurdirdi. 1424-1429-yillarda silindir shakldagi rasadxona Obirahmat arig‘i yonida qad rostlaydi. Rasadxona o‘z kutubxonasida o‘n besh mingga yaqin kitobni jamlay olgan edi.[3]

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrdagi iqsodiy ahvolga ham e’tibor qaratdi. Ulug‘bek mamalakatdagi savdo-sotiqni barqarorlashtirish maqsadida 1427-1428-yillarda mis pullarni tartibga keltirish uchun pul islohatini o‘tkazadi. 1420-yillarda ham Ulug‘bek tomonidan Buxoro va Samarqand hududlarida mis tangalar zarb etilib, muomлага kirtilgan. Biroq, 1427-1428-yilda mis tangalarni oldingiga nisbatan ko‘p va yangi ko‘rinishda zarb etilishi pul islohati o‘tkazganligidan daloalt beradi. Ulug‘bek zarb ettirgan mis tangalar Shahrisabz, Samarqand, Termiz, Qarshi, Andijon, Buxoro va Shohruxiya hududlarida zarb etilgan.[4] Bu pul islohati bozor munosabatlarini tartibga solishga yordam berib, savdoni rivojlantirgan. Ulug‘bek davrida bundan tashqari yangi soliq turi tamg‘a savdogarlarga joriy etilgan. Aynan, Abdulatif otasiga qarshi tarafdar yig‘ish maqsadida Balx hokimligi davrida savdogarlardan tamg‘a soliqni olishni bekor qilgan.[5]

Mirzo Ulug‘bek davrida mamlkatda ilm fanga e’tibor qaratilishi, natijasida bir qator hududlar Samarqand, Buxoro, G‘ijduvonda madrasalar qurildi. Qurilishda o‘z nomi bilan ataluvchi Ulug‘bek hammomi ham bunyod etildi. Registon ansambilini ilk



inshoati Ulug‘bek madrasasi ham aynan Ulug‘bek davrida qad rostlashi, Ulug‘bekni Registon ansambilini shakillanishida tutgan o‘rni borligini anglatadi.

O‘z davrining buyuk allomasi, Mirzo Ulug‘bek hammisha ardoqda va uning xotirasi hamisha qalbimizdadir. Mirzo Ulug‘bek ham hukmdor va olim sifatida 40 yil sultanatni boshqardi. Uning davrida ilm-fan gullab-yashnadi. Ilm ahli hamisha qo‘llab-quvvatlandi. Olim siaftida Ulug‘bek 1018 ta yulduzni kordinatalarini aniqlay oldi. 55 yoshida qatl etilgan bo‘lsada, o‘z umrini ilm fanga va mamlakat obodonchiligiga sarf etdi.

Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng, Samarqandlik olimlar birin-ketin, Yaqin Sharq va O‘rta Sharq hududlariga ketishdi. Ular Ulug‘bek merosi va Samarqandda to‘plangan ilmlarni o‘zlari bilan olib ketishdi. 1473-yil Ali Qushchi Istambulga boradi va u yerda rasadxona qurdiradi. XVII asrda yashagan ingliz olimi va astronomi Jon Girvs 1638-yilda Istanbulga kelib, Ulug‘bek Ziji bilan tanishadi va bir nusxasini o‘zi bilan Angilyaga olib ketadi. 1648-yil va 1650-yillarda Mirzo Ulug‘bek Ziji ingliz tilida nashr qilinib, maqola ham yoziladi. Ulug‘beknni Zijini 15 ta nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularni fors tilidagi nusxalari ham bor. O‘zbekiston Sharqshunoslik instituti qoshida Ulug‘bekni o‘zini tuzatishlari bilan 1439-yilda nastaliq yozuvida yozilgan “Ziji Ko‘ragoniy” asari saqlanadi va ushbu asar to‘lig‘icha o‘rganilib chiqilmagan.

Mirzo Ulug‘bek ijodi Chor hukumatidan boshlanib Turkistonda o‘rganila boshlandi. 1908-yilda Ulug‘bek rasadxonasini V.L.Vyatkin tomonidan Ulug‘bek rasadxonasi qoldiqlari topib o‘rganildi. 1966-yilda Ulug‘bek ijodiga bag‘ishlab, Ulug‘bek yulduzi nomli kino film suratga olindi. Mustaqillikdan so‘ng Ulug‘bek ijodiga alohida e’tibor qaratildi. 1994-yilda respublikamizda va jahonda Mirzo Ulug‘bekni 600 yillik yubeleyi keng nishonlandi va Samarqand va Toshkentda Mizro Ulug‘bekni xotirasiga atab haykallar o‘rnatildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy faoliyati o‘zbek xalqi uchun muhim. Chunki, Ulug‘bek yaratgan ilmiy meros jahon ommasi tomonidan keng o‘rganlib borilmoqda. Shu boisdan ham biz Ulug‘bek faoliyatiga befarq qaray olmaymiz va uning ijodini o‘rganishimiz shart.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 26 б.
2. Erkinjonov E., Xakimjonov A., Ubaydullayev S. Movarounnahrda Temuriy, Chig‘atoy va Shayboniylarning siyosiy kurashi. //«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». 2023. №37. – 557 б.
3. Мухамаджонов А. Амир Темур ва Темурийлар салтанати. – Т.: Комуслар бош таҳрияти, – 157 б.
4. Тўхтаев И. Темур ва Темурийлар сулоласининг тангалари. – Т.: Фан, 1992, Б 22-23.
5. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Т.: Шарқ, 2001. – 367 б.
6. Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li. (2025). “Lenin yo‘li” gazetasi – Ikkinci jahon urushi tarixini yoritishda muhim manba. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 74(1), 38-42. <https://scientific-jl.com/new/article/view/7025>
7. Акбаров, Р. (2023). Ikkinci jahon urushi yillarida o‘zbek milliy matbuotida sog‘liqni saqlash masalasi. История и культура центральной Азии, 1(1), 485–490. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-culture/article/view/17209>
8. Акбаров, Р. (2023). Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы). Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 443–455. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527>